Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321247

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Ushbu takliflarni amalga oshirish orqali O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Xulosa

Ta’lim tizimi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sifatli ta’lim, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash orqali mamlakatning rivojlanishini tezlashtirish mumkin. Iqtisodiyotning barqarorligi, shuningdek, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash ham ta’lim tizimiga bog‘liq bo‘lib, ta’lim olish imkoniyatlarining kengaytirilishi va yuqori standartlarga ega buladigan ta’lim muassasalari tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega.

Mavjud muammolarni hal qilish uchun oliy ta’lim va professional ta’limdan foydalanish, milliy hamda xalqaro standartlarga mos muhitni yaratish kerak. Shu bilan birga, ta’limning samaradoriini oshirish va iqtisodiy sohadagi kadrlarning malakasini rivojlantirish uchun iqtisodiyotning talablarini hisobga olish lozim. Bundan kelib chiqib, O‘zbekistondagi ta’lim tizimi yangilanish, hamkorlik va innovatsiyalarga asoslangan rivojlanishni davom ettirishi, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga hissa qo‘shishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 oktabrdagi "Ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi" to‘g‘risidagi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasining 2022 yilgi hisobotlari.
3. Nuriev, N. (2018). O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha strategiyalar. Toshkent: O‘zbekiston davlat universiteti.
4. Alimov, I. (2021). "Oliy ta’limda innovatsion metodlarni joriy etish". Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy jurnal, 12(2), 22-30.
5. Boymatov, M. (2022). "O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi iqtisodiy muammolar" / Xalqaro pedagogik seminar materiallari. Toshkent: O‘zbekiston milliy universiteti, 78-82.
6. Yormatov I. Sifatli kadrlar tayyorlashdagi ayrim muammolar //Yevraziyskiy jurnal sotsialnых nauk, filosofii i kulturы. – 2022. – T. 2. – №. 11. – S. 83-86.
7. Yormatov I. T. Voprosы kachestvennoy podgotovki kadrov //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 12. – S. 39-43.
8. Qambarov, J, Yormatov, I. (2022). Ta’lim sifatini oshirishda avtomatlashtirilgan va monitoring tizimi imkoniyatlaridan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqiotlar xalqaro jurnali, 2(1), 41-50.
9. Yermatov I. T. (2021). Oliy ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ma’yoriy huquqiy hujjatlar va ularni ta’limda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning ayrim masalalari.“. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. 227-229.

FAN VA INNOVATSIYALARNI INTEGRATSIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI

Ilmidin Yormatov Toshmatovich
Farg‘ona politexnika instituti Email: ilmidin.yormatov@ferpi.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada fan va innovatsiyalarni integratsiyalashtirishning ahamiyatini tahlil qilinadi. Innovatsion mahsulotlarning ulushi, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish, ta’lim tizimining rivoji va biznes sektoridagi yutuqlar mufassal shaklda yoritiladi. Shuningdek, mamlakatlar, Janubiy Koreyaning integratsiyalashuvi bo‘yicha amaliy va nazariy tajribalari tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi fan va innovatsiyalarni

Published: 23.12.2024
Cite this article: Ilmidin Yormatov Toshmatovich (2024). Fan va innovatsiyalarni integratsiyalashtirishning ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321247
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

integratsiyalashtirishni rivojlantirish orqali iqtisodiy o‘sish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash uchun strategik yondashuvlarni belgilashdan iborat.

Kalit so‘zlar: innovatsiyalar, integratsiyalashuv, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, innovatsion mahsulotlar, ilmiy tadqiqotlar, ta’lim tizimi, xalqaro tajriba.

Kirish

Fan va innovatsiyalarni integratsiyalashtirish zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy manbai hisoblanadi. Ularni muvaffaqiyatli birlashtirish, davlatlarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va jamiyatning ijtimoiy rivojlanishiga katta ta'sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ham fan va innovatsiyalarni integratsiyalash muhim vazifalardan biridir. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida ilm-fan, ta'lim va sanoat o‘rtasidagi bog‘liqlik kuchaymoqda. Fan va innovatsiyalarni integratsiyalash jarayoni, asosan, quyidagi nazariy asoslarga tayanadi:

1. Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar. Ilmiy tadqiqotlar yangi g‘oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar esa bu g‘oyalarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi. Integratsiyalashish jarayonida ilmiy tadqiqotlarning natijalarini sanoatga tatbiq qilish, iqtisodiy foyda olishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

2. Ta'lim tizimining roli. Ta'lim tizimi zamonaviy ilm-fan va innovatsiyalarni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Ta'limda ilmiy tajribalarni va yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilar va talabalarni innovatsion fikrlashga o‘rgatish mumkin. O‘zbekistonda ta'lim tizimida innovatsiyalarga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa ta'lim sifatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

3. Sanoat va iqtisodiyot. Sanoat sektori innovatsiyalarni tatbiq etadigan asosiy maydon hisoblanadi. O‘zbekistonda industrializatsiya jarayonida fan va innovatsiyalarni integratsiyalashish, iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va raqobatbardosh korxonalarni yaratish maqsadida olib borilayotgan dasturlar muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonda innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasidagi statistik ma'lumotlar 2020-2023 yillarda mamlakatning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishidagi muhim o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. Ushbu davrda bir qator davlat dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular innovatsiyalarni rag‘batlantirishga qaratilgan.

Masalaning qo‘yilishi

2023 yilda O‘zbekistonda innovatsion mahsulotlar ulushi 11% ga oshdi, bu esa 2020 yilga nisbatan 4% ko‘payishni anglatadi. Bu ko‘rsatkich mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida innovatsion g‘oyalarning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Innovatsion mahsulotlar ulushining oshishi, asosan:

- Yangi mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish: Mamlakatda yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni ijro etish orqali innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarildi.

- Eksport salohiyatini oshirish: Innovatsion mahsulotlar xalqaro bozorlarni egallashga, mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishga imkon berdi.

2021 yilda O‘zbekistondagi innovatsion bizneslarning soni, asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent viloyatida, 25% ga oshdi. Ushbu o‘sish innovatsion muhitni kengaytirishga, yangi ish joylarini yaratishga va iqtisodiy o‘sishga yordam berdi. Innovatsion bizneslarning ko‘payishi bir qator omillar bilan bog‘liq:

- Yangi investitsiyalarning kelishi: Mahalliy va xorijiy investitsiyalar innovatsion bizneslarni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

- G‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash: Innovatsion g‘oyalarni amalga oshirish uchun yetarli moliyalashtirish va infratuzilma mavjudligi.

2022 yilgi ma'lumotlarga ko‘ra, ilmiy-tadqiqot muassasalariga berilgan grantlar soni 40% ga oshdi. Bu o‘zgarish mamlakatda ilm-fan va innovatsiyalarning rivojlanishini

qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sa'y-harakatlarning natijasi hisoblanadi. Grantlar sonining oshishi quyidagi omillar bilan bog‘liq:

- Ilmiy tadqiqotlar sohasidagi islohotlar: Mamlakatda ilmiy tadqiqotlar sohasidagi islohotlar ilmiy muassasalarga qo‘shimcha mablag‘lar jalb qilish imkonini berdi.

- Innovatsion loyihalarga moliyaviy ko‘mak: Grantlar innovatsion loyihalarni amalga oshirishda muhim moliyaviy manba sifatida xizmat qilmoqda.

2020-2023 yillar davomida innovatsion faoliyatni rivojlantirish sohasida sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Innovatsion mahsulotlar ulushining oshishi, innovatsion bizneslarning ko‘payishi va ilmiy-tadqiqot muassasalariga berilgan grantlar sonining ortishi — bularning barchasi mamlakatning iqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga yordam beradi. Ushbu davrda amalga oshirilgan davlat dasturlari va islohotlar, fan va innovatsiyalarni integratsiyalashni ta'minlash, O‘zbekistonning global iqtisodiy raqobatbardoshligini kuchaytirishga qat'iy qaratilganligi seziladi. Shu bois, kelgusida ham ushbu sohalarda qilingan investitsiyalarni oshirish va innovatsion ekotizimni yanada rivojlantirish zarurligi ko‘zga tashlanadi.

O‘zbekistonda fan va ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida ilmiy tadqiqotlar natijalari ta'lim tizimida kuchli o‘zgarishlarga olib kelmoqda. 2023 yilda faoliyat yuritgan 213 ta OTMdan 116 tasi davlat, 67 tasi nodavlat, 30 tasi esa xorijiy oliy ta’lim muassasasi hisoblanadi. Hozirda bu oliygohlarda 1 mln 300 ming nafardan oshiq talaba tahsil olib, bu ko‘rsatkich orqali yoshlarni oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2022 yilgi 38 foizdan 42 foizga oshgan.

Fan va innovatsiyalarni integratsiyalashtirishning ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

1. Raqobatbardoshlikni oshirish. Fan va innovatsiyalarning integratsiyasi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiradi. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida yangi texnologiyalarni qo‘llash yordamida hosildorlikni oshirish va resurslardan samarali foydalanish mumkin. Innovatsion texnologiyalar qishloq xo‘jaligida

2. Ijtimoiy rivojlanish. Fan va innovatsiyalarni integratsiyalashuv jarayoni ijtimoiy rivojlanishda ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion g‘oyalar yordamida ta'lim sifatini oshirish, sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish va atrof-muhit muammolarini hal qilishga yordam beradi. O‘zbekistonda innovatsion dasturlar orqali ijtimoiy muammolarga yechimlar taklif etiladi.

3. Iqtisodiy o‘sishni ta'minlash. Integratsiya iqtisodiy o‘sishni ta'minlaydi va O‘zbekiston hukumati tomonidan amalga oshiriladigan iqtisodiy islohotlar innovatsiyalarni rivojlantirishga qaratilgan. 2023 yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti 6% dan ko‘proqqa o‘sdi, bu innovatsion ishlarning natijalari hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi

Janubiy Koreya innovatsion iqtisodiyot yaratishda fan va texnologiyalarning integratsiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirib, global iqtisodiyotda o‘z o‘rnini mustahkamlashga erishdi. Mamlakatning iqtisodiy siyosati ilm-fanni rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ular ichki yalpi mahsulotning 4%ini ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalarga sarflagan. Ushbu investitsiyalar natijasida yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari, masalan, elektronika, avtomobilsozlik, va biotexnologiya kabi sohalarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga erishildi. Innovatsion strategiyalar orqali mamlakat nafaqat ichki, balki xalqaro bozorda ham yetakchi o‘rinlarga chiqdi, shuningdek, ushbu jarayon investorlar va tadbirkorlar uchun qulay sharoitlar yaratdi, yangi ish o‘rinlarini ochdi va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tezlashtirdi. Bu esa, mamlakat aholisining yuqori sifatli ta’limga va ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirishga bo‘lgan ehtiyojini yanada ortishiga olib keldi, buning natijasida Janubiy Koreya oxirgi

yillarda jadal rivojlanishni va global raqobatdoshlikni saqlab qolishda katta yutuqlarga erishdi.

Germaniya ilmiy tadqiqotlar va sanoat o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishdi. 2021 yilda mamlakatda 1950 ta ilmiy loyiha amalga oshirilib, barcha ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan moliyalashtirish 3 milliard yevrodan oshdi, bu esa Germaniya iqtisodiyotining innovatsion asosini mustahkamlashga yordam berdi. Berilgan mablag‘lar asosan raqamli texnologiyalar, biotexnologiya, energiya samaradorligi va yangi materiallarni ishlab chiqish kabi sohalarga qaratildi. Natijada, ushbu loyihalar nafaqat yangi kadrlar tayyorlash, balki mavjud ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar sonini oshirishga ham xizmat qildi. Germaniyada innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlaydigan kuchli ilmiy infratuzilma va tadqiqot markazlari mavjud bo‘lib, bu esa ustunliklari bo‘yicha global raqobatbardosh kuchlarga aylanishga yordam beradi. Shuningdek, mamlakatdagi innovatsion ekotizimning rivojlanishi, startaplarni qo‘llab-quvvatlash uchun tashkil etilgan turli grantlar va investitsion dasturlar orqali ham amalga oshirilmoqda. Shu tariqa, Germaniya yuqori texnologiyali iqtisodiyotini yanada taraqqiy ettirishda muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Fikrimizcha quyidagi istiqbolli yo‘nalishlari O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash, global raqobatbardoshligini oshirish, va innovatsion g‘oyalarni amalga oshirishda muhim o‘rin tutadi. Bunga quyidagi rivojlanish yo‘nalishlarini kiritishimiz mumkin:

1. Ta'lim tizimini modernizatsiyalash. O‘zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiyalash jarayonida innovatsion fikrni rivojlantirishga qaratilgan o‘zgarishlar va islohotlarni amalga oshirishga muhtoj. Zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish, raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish va amaliyotga e'tibor berish orqali yosh avlodni sifatli ta'lim bilan ta'minlash kerak.

2. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish va tadqiqotlar uchun infratuzilmani odatdagidan ham yuqori darajada mustahkamlash zarur. Innovatsion markazlar va inkubatorlar tashkil etish, shuningdek, ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat o‘rtasida hamkorlikni oshirish orqali innovatsion ekotizimni rivojlantirish mumkin.

3. Raqamli iqtisodiyot va digitalizatsiya. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish va digitalizatsiya jarayonini faollashtirish O‘zbekistonda istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Ma'lumotlar tahlilidan foydalangan holda davlat xizmatlarini raqamlashtirish, e-hukumat tizimini rivojlantirish va raqamli moliya xizmatlarini kengaytirish orqali iqtisodiyotni zamonaviylashtirish mumkin.

4. Ijtimoiy rivojlanish va barqarorlik. Ijtimoiy rivojlanishga e'tibor qaratish, aholining farovonligini oshirish uchun zarurdir. Ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning yaxshilanishi, ta'lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini rivojlantirish, ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish - bular barchasi O‘zbekistonning barqaror va har tomonlama rivojlanishi uchun muhim yo‘nalishlardir.

Ushbu yo‘nalishlar O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga yangi turtki berishi, xalqaro maydonda raqobatbardoshligini oshirishi va davlatning barqarorligini ta'minlashi mumkin. Bu jarayonlar uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish muhimdir.

O‘zbekistonda fan va innovatsiyalarni integratsiyalashuvining ahamiyati o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib, bu jarayon davlatning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o‘sishni ta'minlash va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynaydi.

Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish, investitsion muhitni yaxshilash va jamoatchilikni jalb qilish orqali O‘zbekistonda fan va innovatsiyalarni integratsiyalashuvini yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

АДАБИЁТЛАР

1. Sa’dullaev, I. (2020). Innovatsion rivojlanish va uni daromad manbalari. Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi.
2. Toshpulatov, A. (2018). Fan va innovatsiyalar integratsiyasi: milliy iqtisodiyotdagi o‘rni. Iqtisodiyot va monitoring jurnali, 4(2), 55-62.
3. Maslov, A. (2019). Ilmiy inavrativ va uning ijtimoiy-iqtisodiy samaralari. Jurnal "Intellektualnaya sobstvennost", 3, 45-50.
4. Mirzaev, B. (2022). Fan va tadqiqotlar integratsiyasi: O‘zbekiston tajribasi. Innovator jurnali, 1(1), 22-30.
5. Задорин, В. М. (2018). Инновационные технологии и их внедрение в структуру производственной деятельности. Журнал "Инновации и экономика", 2, 20-28.
6. Платицын, А. П. (2020). Современные тенденции интеграции науки и бизнеса. Вестник высшей школы экономики, 3(4), 102-111.
7. Ёрматов И. Сифатли кадрлар тайёрлашдаги айрим муаммолар //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 83-86.
8. Yormatov I. T. Вопросы качественной подготовки кадров //Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. – 2022. – Т. 2. – №. 12. – С. 39-43.
9. Қамбаров, Ж, Ёрматов, И. (2022). Таълим сифатини оширишда автоматлаштирилган ва мониторинг тизими имкониятларидан фойдаланиш. Назарий ва амалий тадқиқиотлар халқаро журнали, 2(1), 41-50.
10. Ерматов И. Т. (2021). Олий таълим сифатини оширишга қаратилган маъёрий ҳуқуқий ҳужжатлар ва уларни таълимда илғор педагогик технологияларни қўллашнинг айрим масалалари.“. Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 227-229.

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ОПТИМАЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИНИ ЕЧИШДА АХБОРОТ ТИЗИМЛАРИНИНГ АХАМИЯТИ

Сауханов Жанибек Казиевич
Иқтисодиёт фанлари доктори, профессор
Мырзатаева Гулмира Муратбаевна.
Экономика мутахассислиги 1-курс магистранти
Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университети
gulmiramirzataeva90@gmail.com

Аннотация. Мазкур тезисда илмий тадқиқотлар натижаларини тахлил қилган холда қишлоқ хўжалигида келажакда кутилиши мумкин бўлган озиқ-овқат муаммосини хал қилишда, жумладан, камрок ресурслардан фойдаланиш орқали маҳсулотлар ҳажмини кўпайтириш ҳамда шу каби муаммоларга ечим топишда АКТ тизимидан фойдаланиш имкониятлари хақида маълумот келтирилади.

Калит сўзлар: озиқ-овқат муаммоси, махсулот хажми, АКТ тизими, тадқиқот.